

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 12 (67281)
2020-yil 23-mart




www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirilar gazetasi

ISSN-2010-6092



Abdulla Qodiriy
o'zbek romanchiligini
boshlab bergen
ulkan adibdir.

Abdulla QAHHOR

Men tug'ilgan bu chaman,
Obod, guliston Vatan.
Har yon go'zal bog'-bo'ston,
Shuhratli O'zbekiston!

Samo quchgan bayrog'i,
Elga darmon ardog'i.
Jondan aziz tuprog'i,
Jannat yurt O'zbekiston!

Omad qanot qoqadi,
Shodlik elga boqadi.
Baxt nurini sochadi,
Shavkatli O'zbekiston!

Hayot gashtin suradi,
Ardoqda unda inson.
Do'stga qo'lin tutadi,
Himmatli O'zbekiston!

Gulira'no ANVAROVA,
Toshkent shahar,
Abdulla Qodiriy nomidagi
ijod maktabining 7-sinf o'quvchisi



VIDEODARS MASHG'ULOTLARI

*o'quvchilarning ta'tilini
mazmunli o'tkarishga
yordam beradi.*

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov boshchiligidagi Koronavirus infeksiyasining tarqalishini oldini olish va ta'lif muassasalarida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash yuzasidan respublika maxsus komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorga ko'ra, mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktab o'quvchilari uchun 16-mart kunidan ta'til e'lon qilindi.

Hozirgi kunda Xalq ta'limi vazirligi tizimiga kiruvchi barcha ta'lif muassasalarida jumladan, maktab-internatlar, «Barkamol avlod» bolalar maktablari-dagi to'garaklarda ushu ta'lif-tarbiya muassasalariga kirish va chiqish qat'iy nazoratga olinib, turli tadabirlar cheklandi.

Hukumat komissiyasi o'quvchilarning ta'til paytida bilim olishi uchun xalq ta'limi vazirligiga O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallar bilan hamkorlikda o'quv dasturlarida rejalashshtirilgan dars mashg'ulotlarini televizion efigra uzatish uchun videodarslar tasvirga olinishi hamda efig vaqtlanmini ajratish bo'yicha vazifalar yuklatildi.

Mazkur videodars mashg'ulotlarini tayyorlash va uni tasvirga olish bo'yicha soha xodimlaridan iborat tashkiliy-ijodiy guruh tuzildi va hozirda videodarslarni tasvirga olish ishlari boshlandi.

Videodarslar tayyor bo'lgandan keyin televiedeniye va Xalq ta'limi vazirligining ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari va uzedu va rasmiy veb-saytlarida (www.uzedu.uz) elektron axborot portallari (online maktab) orqali ham namoyish etib boriladi. Videodarslar va namoyish vaqtlanri to'g'risidagi ma'lumotlar vazirlilik rasmiy sayti, ijtimoiy tarmoqdagisi sahifalari hamda Kundalik tizimi orgali e'lon chop etib boriladi.

Videodarslar tayyor

bo'lgunga qadar, Xalq ta'lifi vazirligi va Respublika ta'lif markazi tajribali o'qituvchilar bilan birgalikda o'quvchilarga ta'til paytida uyda mustaqil tarzda ta'lif olishlari uchun namunaviy dars tavsiyalarini ishlab



chiqqdi. Hozirda mazkur tavsiyalar Xalq ta'limi vazirligining rasmiy saytiga (www.uzedu.uz) joylanmoqda.

Namunaviy tavsiyalar ixtiyoriylik tamoyilli asosida bo'lib, fan o'qituvchilar o'zlarining yillik ish rejalarini asosida tegishli o'zgartirish kiritishi mumkin.

O'qituvchilar ota-onalar bilan hamkorlikda telefon yoki internet texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilarga ta'til paytida bilim olishlari uchun tavsiyalar berib borishlari so'raladi.

Shu bilan birga, Xalq ta'limi vazirligi o'quvchilarga qo'shimcha manbalar sifatida Khan Academy Edu Market Eduportal kitob.uz Online Maktab maktab. uzedu.uz kabi ta'lif resurslaridan ham foydalanishlari tavsiya etiladi.

Shuningdek, joriy yilning 23-martdan boshlab 4 –


11-sinf, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtsasida matematika, fizika, kimyo, biologiya hamda informatica va axborot texnologiyalari fanlaridan onlayn olimpiadalar tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. O'quvchilar olimpiadada bepul va ixtiyoriy ravishda ishtiroy etishlari mumkin. Buning uchun ishtiroychilar olympiad. uzedu.uz veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tishi va tahsil olayotgan ta'lif muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'ladi. Onlayn olimpiadalarni fanlar bo'yicha o'tkazish jadvali olympiad. uzedu.uz veb-saytida e'lon qilib boriladi.

Bunda nako'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ta'til davrida fanlarga oid qo'shimcha materiallar qilish uchun imkoniyat yaratishdir.

Onlayn olimpiada topshirilgari murakkablik darrasini turliha bo'lgan 20 ta test savollaridan iborat bo'lib, topshirilgarni bajarish uchun o'quvchilarga bir soat vaqt ajratiladi.


Xalq ta'limi vazirligi ota-onalardan farzandlarining ta'til paytida dam olishlari hamda vaqtlanini samarali o'tkazishlarni, darslarni o'z vaqtida o'lashtirilishini nazoratga olishlarini so'raydi.

Xalq ta'limi vazirligi
Axborot xizmati



BIZ UCHUN QAYG'URADIGAN OZOD VA OBOD VATANIM BOR

*Mana, muddatidan oldin ta'tilga chiqqanimizga
ham bir necha kun bo'ldi. Bu vaqt mobaynida
biz o'quvchilar maktabimizni, ustozlarimizni va
do'stlarimizni sog'indik.*



Biroq, bizning dam olish kunlarimiz mazmunli va qiziqarli o'tishiga hukumatimiz tomonidan alohida g'amxo'rik ko'satilmoqda. Jumladan, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi kanallari orqali bizga videodarslar va onlayn darslarni taqdim etmoqdarlar. Biz barcha fanlar bo'yicha ma'lumotlarni ushu mashg'ulotlar orqali o'lashtirib bormoqdamiz. Men 8-sinfda, singillarim 5- va 4-sinfda o'qiyimiz.

Maktabimizda ustozlarimiz tomonidan ota-onalar hamda o'quvchilar uchun maxsus kanal tashkil etilgan. Ushbu kanal orqali ustozlarimiz bilan bog'lanib turamiz, ulardan zarur topshirilgarni olib bajaryapmiz. Vaqtimizni yanada mazmunli o'tkazishga uydagi shaxsiy kutubxonamizdagi kitoblarimiz hamda aqilya va sport o'yinlarimiz ko'mak bermoqda. Men va singillarim bizni sevadigan, biz uchun qayg'uradigan ozod va obod Vatanda yashayotganimizdan baxtiyormiz.

*Diyorbek DONIYOROV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
13-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi*



Vahimadan xiyonatgacha bir qadam

O'zidan ham vahimasi yomon bo'lgan koronavirus pandemiyasi mamlakatimizga kirib keldi.
 «Dushmanidan qo'rqma, vahimadan qo'rq»,
 deyiladi maqollarning birida.

VAHIMA O'ZI NIMA?

Shu o'rinda, vahima to'g'risida fanda qanday qarashlar mavjud? Psixologiyaga oid kitoblarda vahima – his-tuyg'u va kayfiyatning buzilishi sifatida qaraladi. Vahimada odamni asosiz qo'rquv bosadi, kishi nimadandir xavotirlanib, hadiksiraydi, bezovta bo'ladi, ko'ngli g'ashlanib, oromi yo'qoladi. Unga kelajakda falokat bo'lishi muqarrardek, o'zi yoki yaqinlarining hayoti xavf ostida turgandek tuyuladi.

Bunday sharoitda shaxsda asosli, oqilona qarorlar qabul qilish layoqati cheklanadi.

Albatta, bu holat faqat bizning mamlakatimizga xos desak, adolatdan bo'lmaydi. Zero, koronavirusning jahon miqyosidagi zararlari haqida bir-biridan mudhish xabarlar ko'payib borayotgan bir sharoitda, ko'plab mamlakatlarda bizda kecha kuzatilganiga o'xshash vaziyatlar bo'y ko'satmoqda.

So'nngi yuz yillikdagi insoniyatning o'sish ko'rsatkichlari aynan tibbiyotning taraqqiyoti evaziga insонning umumiy umr ko'rish davomiyligi ortganligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

VAHIMA VA TERRORIZM

Ammo insoniyatning turli kasalliklar oldidagi tarixiy qo'rquv hissi, so'nngi asrda vizual axborot vositalari rivojlanishi bilan yanada «mustahkamlandi», desak yanglismagan bo'lamiz. Jumladan, turli yalpi kasallanishlar haqidagi filmlar kishilarning ong ostiga o'nashib qolib, ularning oldidagi real xavfni «oxirzamon ofati» darajasiga olib chiqib qo'yayotgandek, go'yo.

Agar jiddiy faktlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugun bundan oldin kuzatilgan pandemiyalardan ko'ra, ancha kamroq xavf oldida turganimiz, yaqqol ko'zga tashlanadi. 16-mart holatiga ko'ra, mazkur kasallikka chalinganlar o'tasida olim holatlari 4 foizga ham yetmaydi.

Bundan kelib chiqadiki, koronavirus xuddi terrorizmga o'xshash effekt uyg'otmoqda, ya'ni aslida, terrorizm ortidan keng ko'lami urushga nisbatan kamroq qurbanlar berilsa-da, lekin uning ommaviy axborot vositalidagi «dovrug'i» butun dunyoni larzaga soladi. Terrorizmnning ham asl maqsadi – dunyoni qo'rqtish. Shu tufayli, Isroil Bosh vaziri antiterror texnologiyalari yordamida koronavirus tarqalishiga qarshi kurashishini aytgan bo'lsa, ehtimoldan holi emas.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashni istardikki, biz hozir duch kelgan tashvishlar o'tib ketadi, g'alvir suvdan ko'tariladigan vaqt kelganda, bosib o'tgan yo'llimizni nafaqat o'zimiz, balki bizga yumshoq qilib aytganda xayrixoh bo'lmagan kuchilar ham tahlil qiladi. «O'zbekiston xalqi qiyinchilikni qanchalik oqilona yengib o'tdi?» degan savol yuzaga chiqib, ojiz jihatlarimizni aniqlashga harakat qilishadi.

Ammo biz bu vaziyatda xalqimizning qadimdan shakllanib kelgan donishmandlik xislatlari namoyon bo'lighiga ishonamiz va bu kelajakda bizning xotirjamligimizga rahna solmoqchi bo'lgan g'arazgo'y larga aniq signal bo'lub xizmat qiladi hamda zinhor xalqimizni olomonga aylantirishga jazm etmaydilar.



AXBOROT VA IJTIMOIY MAS'ULIYAT

Mazkur pandemiya hali epidemiyasi bosqichidayoq, Shveysariya Milliy teleradiokompaniyasining Xalqaro axborot xizmati, «bir tomondan, OAV aholini voqealar rivojidan xabardor qilib turishimiz kerak, boshqa tomondan esa, OAV yoki ommaviy kommunikatsiya vositalaridagi «faollar» ko'proq «dayk» yig'ish uchun vahimani kuchaytirishimiz axloqsizlikdir», deya yozgan edi.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda biror bir kasallik keng tarqalishida transport-kommunikatsiyalarining rivojlanganligi va insonlarining turli maqsadlardagi harakatlanishi eng muhim omil bo'lub turibdi. Boshqa tomondan bu jarayonda insonlarning o'zlarini qanday tutishi muhim ahamiyatga ega.

XOTIRJAMLIK YARIM SOG'LIKDIR

Ibn Sino aytgarlaridek, vahimaning o'zi yarim kasallikdir. Xotirjamlik yarim sog'lukdir. Sabr esa shifoning boshlanishidir.

Albatta, keng ommadan oddiygina qilib, o'zini namunali tutishni so'rash, yetarli bo'lmasligi mumkin. Chunki u bugun juda katta axborot bosimi ostida qolgan. Ana shunday sharoitda sotsiologiya, psixologiya mutaxassislari aynan o'sha kommunikatsiya vositalari orqali insonlarni o'zlarini bilmagan holda vahimaga berilib, turli harakatlardan tiyilishga chaqirish yo'llarini ko'rsatib turishsa, ayni muddao bo'lар edi.

MILLAT BOSHIDAGI SINOV

Millat va mamlakat tarixida shunday kunlar bo'ladi, bu paytda xalq o'zining bir maqsad yo'lida birlasha olish qobiliyatini namoyon eta olishi, qiyinchiliklarni mardonavor qarsi olishga tayyorigini ko'rsatib qo'yishi lozim. Bunga o'xshash vaziyatlarda, albatta, tashabbusni o'z qo'liga oladigan qatlarni bo'lishi lozim. Bunday qatlarni esa, mantiqiy ravishda davlat xizmatchilari bo'lishi kerak. Zero, ular o'z xizmat vazifalarini sidqidildan, fidoyilik bilan bajarish bilan bir qatorda, ana shunday xalq boshiga og'ir sinov tushgan paytda jamiyatda o'zini tutishi bilan boshqalarga shaxsiy namuna ko'rsatishi va yuksak axloqiy qoidalarga rioya qilishi lozim. Buni

bizdan ko'ra, bir necha ming barobar yirik xavf ostida qolgan Xitoy tajribasi isbotlab berdi.

Jamiyatning faol qatlamlarini birlashtirgan nodavlat tashkilotlari esa, o'z navbatida, sinovli kunlarda xalqimizning xotirjamlikni saqlab qolishida tayanch bo'gini bo'lishi maqsadga muvofiq. Zero, do'st kulfatda sinaladi.

Afsuski, har bir jamiyatda bo'lani kabi, bizning jamiyatimiz ham qusurli shaxslardan holi emas. Ana shunday larga qonunchiligidan ko'zda utilgan jazoning muqarrarligini ta'minlash ham xalqimizning osoyishtaligini ta'minlashning muhim shartidir.

Har qanday OAV, ijtimoiy tarmoqning faol foydalanuvchi internet tarmog'iga joylayotgan ma'lumoti bevosita yoki bilvosita, umuman zarracha miqdorda bo'lsa ham vahimaga olib kelishga sabab bo'lmaydimi, degan savolni o'z oldiga qo'yishi lozim.

VAHIMA UCHUN JAVOB GARLIK

Milliy qonunchiligidan vahima tarqatganlik uchun mutanosib jinoi javobgarlik mavjudligi, ana shunday harakatlarni o'yab yoki o'yalamay sodir qilayotgan shaxslarni yana bir bor hushyorlikka chaqirishiga umid qilamiz.

Xususan, aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash 44 mln 600 ming so'mdan 89 mln 200 ming so'mgacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma'lumotlar va materiallarni har qanday shaklda tarqatish 66 mln 900 ming so'mdan 89 mln 200 ming so'mgacha miqdorda jarima yoki 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agar yuqorida harakatlar oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan, ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

SIZ SEVGAN ADIBLAR

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI



*Abdulla Qahhor haqida O'zbekiston
Qahramoni, yetuk adabiyotshunos
olim Ozod Sharofiddinov:
«U adabiyotni atomdan kuchli
deb bilardi va uning kuchini o'tin
yorishga emas, salmoqli, jiddiy
maqsadlarga qaratish kerak deb hisoblar, adabiyot uning
uchun muqaddas ish edi va u adabiyotga ajib bir halollik,
poklik bilan xizmat qilib o'tdi», deb yozgan edi.*

Adibning asarları g'oyaviy-badiiy jihatdan shu qadar mukammalki, aynan shu jihatni uchun nafaqat o'zbek xalqining, balki ko'pgina qar-dosh xalqlarning ham mulkiga aylandi. Shu sababli, uning asarları o'nlab xorijiy tillarga tarjima qilindi.

Abdulla Qahhor hikoyalarining hayotiyligi shundaki, yozuvchi voqealarni qiziqroq qilishga, har qanday yo'l bilan kitobxonni qoyil qoldirishga urinmaydi, uning diqqat markazida tasvirlayotgan hodisanieng eng muhim, xarakterli jihatlarini g'oyat ixcham shaklda, sodda, o'zbekona, milliy uslubda ifodalash turadi.

Mahoratlari adibning hikoyalarini o'qib, yosh, barkamol avlod ongiga singdirar ekanmiz, o'quvchilarining dunyoqarashi keng, axloq-odobli qilib tarbiyalashdagi ahamiyati naqadar katta ekanligiga guvoh bo'lamiz. «O'g'ri», «Bemor», «Anor» hikoyalarida adib kitobxonni adolatli, to'g'riso'z, samimiy bo'lishga chorlaydi. Xalqimizning o'tmishdagi hayotini ko'z oldimizga keltirib, inson haq-huquqlari olyi o'ringa qo'yilgan, keng imkoniyatlar yaratilgan hozirgi kunimizga shukronalar aytamiz.

Yozuvchi Abdulla Qahhor ijodini hukumatimiz yuksak mu-kofotlar bilan taqdirlagan. Istiqoliga erishganimizdan so'ng, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan. Toshkentda uning uy-muzeyi mavjud.

*Sanamjon RO'ZMETOVA,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
97-umumta'lum maktabi o'qituvchisi*

SHIORIM: OLG'A INTILISH

Men ingliz tilini o'rganishga juda qiziqaman. Oyim shu fandan dars bergenlari bois, bo'sh qolsam, albatta, qo'limga kitob tutqazib, birorta so'z yoki gap aytib, uni darhol tarjima qilib berishimni aytadilar.

Oyim doim «o'rtoqlaringga yordaming tegsin», deydilar. Shuning uchun xorij tilini o'rganishga qiynalayotgan sinfdoshlarimga til o'rganishda ko'makchiman.

Ayni damda, o'qituvchilarimiz tomonidan berilgan ta'tildagi topshiriqlarni bajaryapman. Shuningdek, sportning shaxmat turiga juda qiziqaman. Kompyuter yordamida shaxmat o'yinining sir-asrorlarini mukammal o'rganmoqdaman. Ushbu tur bo'yicha talaygina yutuqlarni qo'liga kirityapman. Ta'tilda esa bilim va malakamni oshirib, nasib bo'lsa, tengdoshlarim orasida o'tkaziladigan musobaqalarda olyi o'rinni olishga harakat qilaman. Mening shiorim «Doim olg'a intilish».

*Sardor ABDURAHMONOV,
Toshkent viloyati,
Angren shahridagi
41-umumta'lum
maktabining 5-«D» sinf
o'quvchisi*



Men bugun aziz ustozlarim erishayotgan yutuqlari haqida yozmoqchiman. Ular doimo bizni yuzaga chiqarishga harakat qilishgani kabi men ham har sohada ilg'orlikni qo'ldan bermayotgan, tumanimiz o'qituvchilariga namuna bo'lib kelayotgan ustozlarimning nomlari gazetada chiqishini istadim.

USTOZLARIM GAZETADA CHIQSA...



Jumladan, informatika va axborot texnologiyalari fanidan saboq berayotgan ustozimiz yaqinda tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan o'tkazilgan «Eng namunalni dars ishlanma», «Eng yaxshi animations dars» ko'rik-tanlovlardida yuqori o'ringa sazovor bo'ldilar. «Eng yaxshi ko'rgazmali qurol» yo'nalishida esa Muaziza Usmonova g'oliblar qatoridan o'rinnegalladi. Ustoz Dono Saidova «Eng namunalni ochiq dars ishlanmasi» g'olib deb topildi. Shuningdek, maktabimizdagi faol muallimlardan Lobar Qodirova, Nargiza Mu-hiddinova fan oyliklarida ko'rsatgan faoliyatlari tufayli taqdirlanishdi. Men barcha fidoyi ustozlarimni yutuqlari bilan tabriklab, hamisha omad yor bo'lismeni tilayman!

*Diyora SAIDAHMEDOVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi
231-umumta'lum maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi*

TEST JAVOBINI TOPGAN QIZ



*Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor,
gazetamiz orqali berilayotgan test
savollari javobini to'g'ri
topib, tahririyatimizga
birinchilardan bo'lib
telefon qilgan hamda
boshqotirmalarni
yechib, telegram
pochtamizga
yuborayotgan
o'quvchilarini
taqdirlab
boryapmiz.*

Yodingizda bo'lsa, Bobur tavalludining 537 yilligiga bag'ishlab ham test savollari hamda bosh-qotirma e'lon qilgandik. Ushbu test javoblarini va boshqotirmanni to'g'ri yechib, tahririyatimizga birinchilardan bo'lib, qo'ng'iroq qilgan Farg'on va viloyatining Bag'dod tumanidagi 1-umumta'lum maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Farangiz Ibrohimova bo'ldi. Shuningdek, sinfdoshlari Javohirbek Zokirov, Shahzoda Usmonova, Maftuna Ortigboeva ham faoliy ko'rsatib, o'z javoblarini yo'llashgan. Biz o'quvchilarini gazeta va kitob mutolaasiga mehr uyg'otayotgan ustozlari Gulnoza To'ychiyevaga minnatdorlik bildirib, tahririyatimiz nomidan g'oliblarga kitoblar taqdim etdik.

bu test javoblarini va boshqotirmanni to'g'ri yechib, tahririyatimizga birinchilardan bo'lib, qo'ng'iroq qilgan Farg'on va viloyatining Bag'dod tumanidagi 1-umumta'lum maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Farangiz Ibrohimova bo'ldi. Shuningdek, sinfdoshlari Javohirbek Zokirov, Shahzoda Usmonova, Maftuna Ortigboeva ham faoliy ko'rsatib, o'z javoblarini yo'llashgan. Biz o'quvchilarini gazeta va kitob mutolaasiga mehr uyg'otayotgan ustozlari Gulnoza To'ychiyevaga minnatdorlik bildirib, tahririyatimiz nomidan g'oliblarga kitoblar taqdim etdik.

O'z muxbirimiz

Lesson 12

BOOKS AND READING

Match each kind of book below with the kind of material you would normally find in it.


1. Maps
2. Exercises and diagrams etc. for school study.
3. Meaning of words.
4. Information about a subject.
5. An existing story of crime or adventure.
6. Instruction, e.g. on how to maintain, repair and use a car.
7. Tourist information and advice about a place or country.
8. A list of important, famous people and details of their lives.



No _____



No _____



No _____



No _____

Guidebook, Dictionary, Manual, Atlas, Thriller, Textbook, Who is who, Encyclopedia




No _____



No _____



No _____




No _____

Zaynab BEKCHANOVA,
the teacher of school № 1, in Kushkupir district, Khorezm region

ANTONYMS CROSSWORD PUZZLE

In this crossword puzzle, correctly place an antonym (a word opposite meaning) for each of the given words.



Muhammadsharif
FAYZULLAYEV

«TONG YULDUZI»DA HUQUQ DARSI

Aziz o'quvchilar, «Tong yulduzi» gazetasi orqali berib borilayotgan «Huquq darsi» ruknimizni diqqat bilan kuzatib borayotgan bo'sangiz kerak-a? Konstitutsiyamiz moddalari-yu, Jinoyat, Jinoyat protsessual, Mehnat, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks kabi 16 ta kodekslarimizni va boshqa qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini anglash uchun davlat va huquq darslarini puxta o'zlashtirishga harakat qilayotgandirsiz? Chunki, inson o'z huquqlarini yaxshi bilsagina, hayotda qoqilmaydi, nohaqliklarga uchramaydi. Bugungi darsimiz korrupsiya tushunchasi haqida.



Korruksiyaga yo'l qo'y mang!

2017-yil 3-yanvar-da «Korruksiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. U VI bob, 34 moddadan iborat.

Korruksiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarni yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarni ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.

(«Korruksiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi)

Korruksiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

Bosh prokuratura;
Davlat xavfsizlik xizmati;
Ichki ishlar vazirligi;
Adliya vazirligi;
Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

N. NAZAROVA
tayyorladi



Bu dunyoda hech kimdan qo'rmaslik kerak. Agar kimdir biror kimsadan qo'rqa, unga o'z ustidan hukmronlik qilish huquqini berib qo'yan bo'ladi.

Herman HESSE

Haqiqiy falsafa kitob yozish emas, balki odamlarni tarbiyalashdan iborat.

Lyudovig FOYERBAX



ONA TILIM

Ellar ichra yagona,
Tillar ichra durdona.
Har harfi yoqt dona,
Bebaho, tillo tilim.

Toleimning tumorı,
Har dam tutar xumori.
Jonimga darmondori,
Baxtimga insho tilim.

O'zbekcha urar yurak,
O'zbekcha so'yalar demak.
Azaliy ezgu tilak,
Umrimga oshno tilim.

Kamolaxon ILHOMOVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon
tumanidagi 46-umumta'l'm
mektebinining 5-sinf o'quvchisi



KO'KLAM

Bahor keldi o'lkamizga,
Yana keldi qaldirg'och.
Binafshalar adirlarga
Yozdi yana zo'r quloch.

Ko'klam iliq taftidan
Babra olar daraxtlar.
Qushlar kuy-navosidan,
Qalbimiz zavqqa to'lar.

Gul shoxida o'ynoqlar –
Nozikkina kapalak.
Xushbo'y hidin taratar –
Doshqozonda sumalak.

Ilg'orjon ABDURASULOV,
Farg'onha viloyati, Buvayda
tumanidagi 38-umumta'l'm
mektebinining 6-sinf o'quvchisi

Tabiat sehri


Bahor – yer yuzida uyg'onar olam,
Muattar jo'shqinlik ufurar har yon.
Bu shiddat pinjida mo'jazlik hamdam,
Orzu hislar oshar, mavjlanar har on.

Gullar atri bilan burkangan dunyo,
Tush emas bu balki bamisli ro'yo.
Billur marjon bo'lib shudring tovlanar,
Quyoshning mehridan kular lolalar.

Kimga ilhom erur bu mo'jaz olam,
Hech to'xtov bilmayin qo'lida qalam.
Bog'larni naqshidek kular kamalak,
Tabiat yasandi taqib chambarak.



Shodiya YUSUPOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi
Abdulla Oripov ijod maktebinining 8-sinf o'quvchisi



KITOB

Bilimning boshi kitob,
Deyman u nurli oftob.
O'qib, bilim olaman,
Dono, zukko bo'laman.

Bilimdon bolalarga –
Doim havas qilaman.
Men ham katta bo'lganda,
Zo'r shoira bo'laman.

Mohira MURODXONOVA,
poytaxtimizning Yakkasaroy
tumanidagi 26-umumta'l'm
mektebinining 2-«B» sinif o'quvchisi



BAHODIR, CHAQQON, SOG'LOM BOLALAR

Nurulloh Ostom

Shodon bolalar,
Polvon bolalar.
Yurt kelajagi –
Sog'jom bolalar.
Sport san'ati,
Boylit davlati.
G'olib millati –
Sog'jom bolalar...



Ushbu o'qilishi ravon, tili sodda,
tushunarli she'rnı o'qib, zavqlangan
bo'lsangiz kerak-a? Uning davomini ham
o'qishni xohlaysizmi? Muallifini ham bi-
lishغا qiziqapsizmi? Yuqoridaq parcha keltirilgan quvnoq she'rnинг
muallifi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosи, yozuvchi Nurulloh
Ostondir. Shoiring «Yulduzlar chaqnagan tun», «Bahor raqsи»,
«Yo'ldagi buloq», «Yuragimning bezovta guli», «Qadim yo'llarda»
nomli she'riy to'plamlari nashrдан chiqqan. Ijodkor turkman shoiring
«Rangli yomg'irlar» she'riy to'plami hamda Dog'iston xalq shoiri
Rasul Hamzatovning «Bir oila farzandlari» nomli she'riy to'plamlarini
o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning hajviy janrdagi qator kitoblari ham
nashrдан chiqish arafasida. Nurulloh Ostoning bolalarga bag'ishlab
yozgan she'rlari rang-barang mavzularda. Bir o'qishdayoq o'quvchini
o'ziga jaib etadi. She'rlarida bolalarning ruhiy dunyosi, nabotot
olamiga mehr-muhabbati, har bir
voqe-hodisaga sodda va beg'ubor
munosabati qalamga olinadi.

Yaqinda Nurulloh Ostoning
«Sog'jom bolalar» kitobi nashrдан
chiqdi. Ushbu kitobdan bolalar olamini
boyituvchi turli mavzudagi she'rlar
o'rın olgan.

SALOM

Salom bermoq odobdir,
Salom so'zi oftobdir.
Agar yaxshi bolasan,
Mudom olqish olasan.
Salom saxiy kishidir,
Bu yurakning ishidir.

TONG YO'RGAJI

Ochib tongning darchasin,
Sochdi quyosh zarchasin.
Qushlar boshlar navoni,
Xonish tutar havoni.
Zamin nurga chayildi,
Kim ko'rgan bu sayilni?!
Majnuntollar nozlandi,
Suvga qarab rozlandi.
Yechildi tun yo'rgagi,
Boshlandi tong ertagi.

TINGLA, BAHOR!

Qushchalarning sayrog'i,
Maysalarning bayrog'i.
Menga bunda tanishdir,
Dilda madhi xonishdir.
To'lg'onadi dalalar,
Cho'g'lanadi lolalar.
Qaldirg'ochlar saflanar,
Ko'kda quyosh taftanar.
Nurga to'lar hovuchim,
Tingla, bahor, tovushim!

O, Bahor...

(Tuyg'u)

Bahor... Bepoyon kengliklardagi qorlar o'z o'rnnini
ko'm-ko'k maysalarga hadya etib ketdi. Yer bag'irdan
ohistagini to'lg'onib kurtak yozayotgan boychechkalar
hamon qishning sovuq izg'irinini unutmagandek, go'yo.
Samolarga tutashib ketayotgan qir-u adirlar, beg'uborlik
kasb etgan tog'lar fasli bahorni kutib olmoqda. Atrof
musaffo havoga burkanib, tabiatga tashakkur izhor ayladi.

– Kelaqlol – bahor, kelaqlol, Navro'z! Sochlariiga tol-
bargak taqib olgan latofat sohibalari sumalak sayliga
otlangan, bolalar esa havo sharida uchayotgan fazogirday
varراك uchirmoqda. Hammadan ham mening e'tiborimni
tortayotgani bu, qora qozon boshida kuymalanib yurgan
onaxon. Ular bunchalar kuyib-pishib nima qilmoqda
ekan? Iye, sumalakmi? Ha, ha, sumalak! Bu onaxon
totli mo'jiza tayyorlamoqda-yu...!

Keling, biz ham ularga yordamlashaylik. Qishdan
eson-omon chiqqanimizga shukronalar aytib, sumalak
kovlaylik. Ha, aytgandalay, sumalak uchun tosh terib olish
yodingizdan ko'tarilmasin...

Islam ASILBEKOV,
O'z JOKU talabasi

O'qituvchi bo'lganim uchun dars o'tish, o'quvchilarga ta'lif berishning o'ziga xos usullari haqidagi ko'p o'yayman. Texnika-texnologiya sohasidagi yutuqlari dunyo miqyosida yetakchi o'rinnlarda turadigan Yaponiya va Xitoy davlatlaridagi ta'lif jarayonlari, u yerdagi yoshlar erishayotgan yutuqlar doim e'tiborimni tortadi. Bu ikki davlatning ta'lif tizimida o'xshash tomonlari ko'p. Misol uchun, ota-onalar farzandlarining darsga qatnashishini kuzatishlari, o'qituvchilarning bilim savyasini baholashlari mumkin. Buning uchun alohida kompyuter va kerakli jihozlar bilan ta'minlangan xonalalar mavjud. Bu jarayon esa



Jajji sportchimiz Muhammadali oynayi jahon orqali futbol, karate musobaqalarini ko'rib, sportga mehr qo'yan. Undagi bu serharakatlilikni sport bilan uyg'unlashtirish maqsadida otasi Muhiddin aka o'g'lini «Bilol karate» sport klubiga olib keldi...

Muhammadalining orzusi

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 136-umumta'lism maktabining 2-«B» sinf o'quvchisi Muhammadali Salimjonov bilan suhbatimiz tahririyatda bo'lib o'tdi.

— Muhammadali, tahririyatimizga xush kelibsiz. Aytинг-chi, sinfigizda sport bilan shug'ullanadigan bolalar ko'pmi?

— Sinfdosolarim Botir, Abdurahmon, Abduvoris futbol o'yashni va jismoniy tarbiya darsini yaxshi ko'rishadi. Men esa karate bilan shug'ullanaman. Murabbiyim Vorisxon Zaynudinov juda mehribon. Bizga karate usullarini o'rgatishdan charchamaydilar.

— Qaysi fanlarni yaxshi ko'rasiz?
— Rus tili, matematika, o'qish.
— Matematika fanini nimasini yaxshi ko'rasiz?

— Ustozim bergen mantiqiy savollarni...

— Menga ham biror bir mantiqiy savol bera olasizmi?

— Yildagi eng qisqa oy qaysi?
— Topdim, may. Harflari kam-da!

— To'g'ri.
— Yurtimizdagি Toshkent, Andijon, Samarcand kabi shaharlarda o'tkazilgan bellashuvlarda muvaffaqiyatlari qatnashgansiz. Chet davlatlardagi musobaqalar-da-chi? Boshqa davlat-larning nimasi yoqdi?

— Chet davlatlardan Gruziya, Turkiya, Dubay, Hindiston kabi mamlakatlarda o'tkazilgan musobaqalarda muvaffaqiyatlari ishtirok etganman. Dubayning baland binolari, qumli sohillari chiroyligi ekan. Lekin yurtimizdagи shaharlar men uchun hammasidan go'zal.
— Musobaqalarga borganingizda

yaqinlaringizni sog'inasizmi?

— Albatta, ota-onamni, opam Muslimani, ukam Asadbekni juda sog'inaman. Uyga har doim g'ala bilan qaytgim keladi. Katta bo'lsm, tadbirdor bo'lish niyatim bor, buning uchun, albatta, sog'alom bo'lish kerak, deb o'yayman.

Yoshligidan o'zligini anglashga harakat qilayotgan, maqsadlari sari olg'a intilayotgan bolalarni ko'rganimizda, ularni boshqa bolalarga ibrat qilib ko'rsatgimiz keladi. Farzandlarining iqtidorini o'z vaqtida payqab, ularning kamoloti uchun sportga oshno qilayotgan ota-onalarga, ularning ustoz-murabbiylarga, har qancha tashakkur aytaks, ozlik qiladi.

Nodira NAZAROVA



Zuhra NISHONOVA
olgan surat

o'quvchilar ning yaxshi o'qishi hamda o'qituvchilarning o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishiga sabab bo'ladi.

Meni hayratlantiradigan tomoni shundaki, yaponlar va xitoyliklar qaysi sohada faoliyat yuritmasinlar, inson psixologiyasini, farzandlari bilan qaysi yoshida qanday munosabatda bo'lishni yaxshi biladilar. Masalan, farzandlarini bog'cha yoshidan mакtabda 2-sinf o'quvchisi bo'lgunga qadar hamma narsani yaxshi gap bilan tushuntirishar, hech qachon haqoratomuz so'zlarni ishlashmas ekan. 2-sinfdan 4-sinf-gacha farzandlariga e'tiborli bo'lib, ko'proq shug'ullanishar ekan. Yana bir ibratli jihatni,

ota-onalar farzandlari necha yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, qiyin vaziyatga tushib qolgan-da ham, biror yutuqqa erisha olmasa ham, ko'nglini cho'ktiradigan gaplarni aytishmas, aksincha, sen, albatta, o'z yo'lingni topasan, sen juda ham irodalisan singari so'zlar bilan ularni ruhlantirib, kayfiyatini ko'tarishar ekan.

Bizning mamlakatimizda ham ota-onalar pullarini to'y-hasham, keraksiz dabdabavozliklarga emas, farzandlarining hayotda ma'lum bir sohaning yetuk mutaxassisini bo'lishlari uchun sarflashlarini istayman. O'qituvchilar ham, ota-onalar ham bir vaqtida bolalarimiz e'tiborli bo'lsak, albatta, bizning farzandlarimiz ham buyuk kashfiyotlar qilib, dunyo ahlini lol goldirishlariga ishonaman.

Mamlakatxon G'AFUROVA,
Farg'onan viloyati, O'zbekiston tumanidagi
27-umumta'lim mакtabining matematika fani
o'qituvchisi

Antiga kitob

«Kitob marafoni»da bir kitob sotib olgan edim. Oybek Haydarov tomonidan tuzilgan «Dunyo mamlakatlari» nomli ensiklopediyadagi turli ma'lumotlarga juda qiziqib qoldim. Ularning ba'zilarini sizga ham ilindim:



1. Birlashgan Arab Amirligining eng mashhur shahri Dubay. Bu shaharda 828 metrlik «Burj Xalifa» joylashgan.
2. Dunyodagi eng ko'p vegetarianlar ya'ni, go'sht ist'emol qilmaydigan odamlar Hindistonda yashaydi.
3. Kanadada dunyodagi eng uzun ko'cha joylashgan. Uning nomi Yangstrit bo'lib, u Ontario shahridagi qirg'oqlardan boshlanib, shimal tomon yo'nalgan. Ko'chaning uzunligi 2000 kmni tashkil etadi.

Fayzulloh RAVSHANXONOV,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
9-umumta'lim mакtabining 6-«B» sinf o'quvchisi

SIZDA-CHI, «ZIZI» BORMI?

Sarlavhadagi bu savol sizga tanish bo'lsa kerak-a? Ha, men o'sha «Bolajon» telekanalidagi burunduq Elvinning har kungi bir «ishi» haqida gap ochmoqchiman. U nuqul biror multfilm yoki ko'rsatuv tugashi bilan go'yo televizor ekranini taqqilatib, «Ey, senda-chi, «ZIZI» bormi?» deya bir savolni qaytaraveradi. «Bolajon» kanalini qanchalik yaxshi ko'rsam-da, saqich haqidagi bu reklama menga unchalik yoqmaydi-da. Buning sababini izohlab bersam.



Bir kuni singlim bilan televizor tomosha qilib o'tirgan edik, birdan yana o'sha reklama paydo bo'ldi. Taxmiman soat 21:00 lar chamasi edi. Besh yoshli singlim menga ham «ZIZI» deb qolsa bo'ladimi, uplash oldidan qilgan xarxashasi onamga ancha tashvish keltirdi.

Yana «Kango», «Flash X» saqichlarining ham reklamalari bor. Odatda, kattalar bizga doimo saqich chaynash oshqozonimiz uchun zararli ekanini uqtirishgan. Shuning uchun, bu reklamalarning bizga keragi yoq, deb hisoblayman.

Asilxo'ja QODIROV,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 226-umumta'lim
mакtabining 4-«B» sinf o'quvchisi

QO'LINGNI YUV

Taom yeyishdan oldin –
Yuvgil, albat qo'lingni.
Tobora mustahkamlaysan,
Sen shunda sog'ligingni.

Toza yurgan odamning,
Ko'ngli ham sof bo'ladi.
Tozalik havo kabi,
Barchaga naf bo'ladi.



DONO BOBO O'GITLARI


SALOM BER

Salom bermoq insonning –
Eng go'zal fazilati.
Salom bizni yanada
Ulug', aziz qiladi.

Kimni ko'sang salom ber,
Oldidan o'tma befarg.
Shunday tarbiya ko'rgan,
Azaldan bizning bu Sharq.

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

- Noma'lum kamayuvchini topish uchun ... ga ayriluvchi qo'shiladi.
- Barcha tomonlari bir-biriga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak ... deb ataladi.
- Ko'paytirishdan hosil bo'lgan son ... deyiladi.
- Noma'lum sonni topish kerak bo'lgan ifoda ... deyiladi.
- Matematik atama.
- Qavslifodallarda avval ... ichi bajariladi.
- Vaqtni ko'sratuvchi asbob.
- Eng kichik uzunlik o'chovi.
- Masofani vaqtga bo'lsak ... hosil bo'ladi.
- Butunning to'rtadan bir qismi ... deyiladi.



Tuzuvchi:
Azatjon AZIMOVA

Turob NIYOZ



HOYLIMIZDAGI GULLAR

Chiroyli bir-biridan,
Hovlimizdagi gullar.
Suv quysam taglariga,
Yashnab ketadi ular.

Go'yo menga qarashib,
«Katta rahmat!» deyishar.
Xushbo'y hidlar taratib,
O'zları ham yayarshar.

SABZAVOTLAR GURUNGI

KARAM:

Sovqotgan odam kabi,
To'n kiyganman bir qancha.
Shu to'nlarim tufayli,
Obro'yim oshgan ancha.



KARTOSHKА:

O'rnim go'shtdan keyinda,
Bilmadim, menda ne ayb?
Axir men go'shtga o'xshab,
Qolmasman darrov aynib.



SHOLG'OM:

Meni ta'mi taxir deb,
Bolalar yeyishmaydi.
Lek koni foydaligim,
Ming afsus, bilishmaydi.



POMIDOR:

Qip-qizilman loladay,
Yonib turgan cho'g' deysiz.
To'g'rab, salat qilsangiz,
Bunday taom yo'q, deysiz.



BODRING:

Yashilman archa kabi,
Pomidorga oshnaman.
Ba'zida achchiq bo'lsam,
Yomon, deya tashlamang.



PIYOZ:

Kimki meni to'g'rasa,
Ko'zlarini yoshlayman.
Qozonga tushgan zahot,
Qizarishni boshlayman.



SABZI:

Go'sht, guruch, piyoz kabi
Oshga juda kerakman.
O'rmonda quyonlarga,
Orzuman, ertakdirman.



QOVOQ:

Odamlar meni suyib,
Mazza qilib yeyishar.
Lek tanbal, uqmaslarni
«Qovoqkalla», deyishar.



SARIMSOQPIYOZ:

Juda o'tkirdir hidim,
Atirdan qolishmaydi.
Shundanmi ovqatlarga,
Meni ko'p solishmaydi.



QALAMPIR:

Achchiqlikda tengim yo'q,
Shunda ham yeyishadi.
Achchiq so'zli odamni
«Qalampir», deyishadi.



BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: 94-645-90-70



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti administrativasiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
da 0208-raqam bilan 2019-yil
10-iyunda ro'yxatdan o'gan.

TAHIR HAYATI:

Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'gli
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

»O'zbekiston» NMU bosma-
xonasida chop etildi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli
chop etilishiha bosmaxona mas'ul.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 00001.
Oburni indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@mail.ru
telegram: lme/tongyulduz
Adadi - 5637
Buyurtma - V 4120

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrif qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.

Gazetening yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylashtirigan
tashkilot javobgar.

Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishigini narxa.
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.
Topshirish vaqt - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel/faks: (99871) 244-63-08